



ENDOKRINOLOGIYANING MUSTAQIL FAN SIFATIDA SHAKILLANISHI

Dehqonova Maftunabegim Xurshid qizi

SamDTU Pediatriya fakulteti 4-kurs talabasi

Arslonova Feruza Asqar qizi

SamDTU Pediatriya fakulteti 4-kurs talabasi

Abduxoliqov Javlon Jumaboy o'g'li

SamDTU Pediatriya fakulteti 4-kurs talabasi

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-april 2023 yil

Ma'qullandi: 15-april 2023 yil

Nashr qilindi: 19-april 2023 yil

KEY WORDS

endokrinologiya, sekretiya bezlari, morfologik o'zgarishlar, insulin gormoni, epidemiologik va profilaktik ishlar, gormonal preparatlar.

ABSTRACT

Mazkur maqolada endokrinologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishi xususidagi mulohazalarimizni bayon qilamiz.

Endokrinologiya (endo... ichki va yun. krinei ajratish va .. logiya – fan) – klinik tibbiyotning bir sohasi. Ichki sekretiya bezlarining tuzilishi, rivojlanishi va faoliyatlarini, ular ishlab chiqaradigan gormonlar hamda ularga aloqador kasalliklarni o'rganadi. Endokrinologiya fan sifatida 19-a. ning 2-yarmidan shakllandi. Nemis fiziologi A. Bertold xo'rolarning urug'donini olib bichilgan yoki yosh xo'rozlarga o'tkazgan, bunda urug'don o'tkazilgan xo'rozda turli fiziologik va morfologik o'zgarishlar yuz bergan. Bu endokrinologiya sohasidagi ilk tajriba edi (1849).

Dastlab ichki sekretiya bezlari degan tushuncha nemis fiziologi va tabiat tadqiqotchisi D. Myuller tomonidan ilgari surildi (1830), lekin uni termin sifatida fanga frantsuz fiziologi K. Bernar kiritdi (1855). Shu davrlarda irlandiyalik R. Greyvs (1835) va nemis olimi K. Bazedov (1840) diffuz toksik bo'qoqni, ingliz shifokori T. Adisson (1855) surunkali buyrak usti bezi yetishmovchiligi klinikasini izohlanadi. Shvetsariyalik xirurg Teodor Koxer (1841-1917) diffuz toksik bo'qoqni davolashda xirurgik usulni ishlab chiqdi. 1889-90 y. larda nemis olimlari D. Mering va O. Minkovskiy tajribada qandli diabet me'da osti bezi faoliyatining buzilishi, rus olimi L. V. Sobolev (1901) me'da osti bezining ichki sekretiya faoliyati pankreatik orolchalar (Langergans orolchalari) bilan bog'lik ekanligini aniqlashdi. Bu keyinchalik kanadalik tadqiqotchilar F. Banting va Ch. Bestni me'da osti bezidan insulin gormonini ajratib olishiga ilmiy asos bo'ldi (1921). 20-a. ning boshlariga kelib, endokrinologiya fan sifatida rivjlandi. Ko'pgina gormonlar; adrenalin (1901), tiroksin (1915), progesteron, testosteron (1934), kortikosteroidlar (1937-52), triyotironin (1950), oksitotsin va vazopressin (1953) toza holda ajratib olindi; gormonlarning kimyoviy tuzilishini aniqlash, ularni sintez qilishga, keyinchalik esa ularning har xil tabiiy gormonlardan bir necha bor yuqori biologik faol analoglarini ishlab chiqishga asos bo'ldi. O'zbekistonda bu fanning rivojlanishi aholi o'rtasida keng tarqalgan buqoq kasalligini tekshirish, uning kelib chiqishida

yod yetishmasligini aniqlashdan boshlandi. 30-y. lardan O'zbekistonning har bir viloyatida endemik buqoq kasalligi turli guruh va ekspeditsiyalar yordamida o'rganildi (S. A. Ma'sumov, P. I. Fedorova, Yo. X. To'rakulov, Sh. Sh. Ilyosov, V. N. Fedoseev, T. M. Muhamdov va boshqa(lar)). Bu kasallikning oldini olish uchun 1954 y. Toshkentda bo'qoqqa qarshi dispanser tashkil qilinib, unda qalqonsimon bez kasalliklari ustida olib borilgan epidemiologik va profilaktik ishlar asosida aholini kaliy yodid tuzi qo'shilgan osh tuzi bilan ta'minlash zarurligi aniqlandi. [2, 56]

Endemik bo'qoqni tugatish va qalqonsimon bezning boshqa kasalliklarini o'rganish, davolash o'lkamiz uchun muhim ilmiy va ijtimoiy muammo bo'lganligi 1957 y. O'zbekiston FA tarkibida tashkil etilgan O'lka tibbiyoti ilmiy tekshirish institutining asosiy yo'nalishini belgiladi. O'lka tibbiyoti ilmiy tekshirish instituti negizida 1989 y. Endokrinologiya instituti tashkil etildi. R. Q. Islombekov, Yo. X. To'rakulov dunyoda birinchi bo'lib buqoq kasalligini aniqlash va davolashning yangi usulini ishlab chiqib, nufuzli mukofotga sazovor bo'lishdi (1964). Qalqonsimon bezning normal, tireoid patolgiyada hamda radiyoterapiyada olingan biokimyoviy, patofiziologik va klinik morfologik ko'rsatkichlari natijalari ijobiy samara berdi. [3, 21]

Respublikada 1998 y. yod yetishmovchiligi holatlari bo'yicha keng miqyosda epidemiologik izlanishlar olib borildi va uning o'rtacha tarqalish darajasi aniqlandi. Ichki sekretiya bezlarini (qalqonsimon bez, qalqonsimon bez oldi bezlari va buyrak usti bezi) suyuq azotda kriokonservatsiya qilish va uning yetishmovchiligi bor bemorlarni transplantatsiya yo'li bilan davolash usuli ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etildi. O'rta Osiyo davlatlarida birinchi bor kriokonservatsiya qilingan to'qimalar banki (1000 ta yaqin to'qimalarni yozmaydigan) tashkil etildi. Qalqonsimon bez rakini biokimyoviy, genetik va morfologik tekshirishning yangi usullari joriy qilinib, jarrohlik, radiologik va konservativ terapiya usullarini qo'llash algoritmi ishlab chiqildi (prof. S. I. Ismoilov). Diffuz toksik buqoq va o'rtacha o'tkir tireoiditda bemorlarning immunologik tizimi o'rganildi va bu ko'rsatkichlar davolashning turli usullarida o'zgarishi va dinamikasi aniqlandi. Qandli diabet va uning asoratlarining epidemiologiyasi, etiopatogenezi asosida nasliy omillarning ahamiyati, kasallikning tarqalishiga moyillik tug'diradigan ichki va tashqi omillar har tomonlama tadqiq etilib, ularni chegaralash, bemorlarni o'z holatini nazorat qilishga o'rgatish usullari ishlab chiqildi (prof. S. Akbarov). [1, 89]

Zamonaviy endokrinologiya dolozarb muammolari va asosiy yo'nalishlari qandli diabet, qalqonsimon bez kasalliklari, jinsiy bezlar faoliyatining buzilishi, gipotalamo-gipofizar tizim kasalliklari, birlamchi giperparatireoz muammosi, organizmda gormonlarning ta'sir mexanizmi, biosintezi va ularning almashinuvini o'rganish, gormonlar analoglari va yangi gormonal preparatlarni ishlab chiqish va h. k. dan iborat. Jismoniy rivojlanishning kechikishi bolalar endokrinologiya sining eng muhim muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Hoz. vaqtda O'zbekistonda tug'ma anomaliyalar skriningi bo'yicha maxsus dastur yo'lga qo'yilgan. Neyrendokrinologiya endokrinologiya mustaqil bo'limi sifatida shakllanmoqda. O'zR dagi barcha tibbiyot in-tlari, Toshkent vrachlar malakasini oshirish in-tida endokrinologiya kafedralari bor.

Adabiyotlar:

1. Al-hussaniy, Hany; AL-Biati, Haedar A (2022-10-12). "The Role of Leptin Hormone, Neuropeptide Y, Ghrelin and Leptin/Ghrelin ratio in Obesogenesis". Medical and Pharmaceutical Journal. 1 (2). ISSN 2957-6067.
2. "Endocrinology, Diabetes and Metabolism Specialty Description". American Medical Association. Retrieved 14 September 2020.
3. Nussey S; Whitehead S (2001). Endocrinology: An Integrated Approach. Oxford: Bios Scientific Publ. ISBN 978-1-85996-252-7.
4. Ojeda, Sergio R.; Griffin, James Bennett (2000). Textbook of endocrine physiology (4th ed.). Oxford [Oxfordshire]: Oxford University Press. ISBN 978-0-19-513541-1.
5. Bayliss, W. M.; Starling, E. H. (1902-09-12). "The mechanism of pancreatic secretion". The Journal of Physiology. Wiley. 28 (5): 325–353. doi:10.1113/jphysiol.1902.sp000920. ISSN 0022-3751. PMC 1540572. PMID 16992627.
5. Bliss M (1989). "J. J. R. Macleod and the discovery of insulin". Quarterly Journal of Experimental Physiology. 74 (2): 87–96. doi:10.1113/expphysiol.1989.sp003266. PMID 2657840.
6. Loewi, O. Uebertragbarkeit der Herznervenwirkung. Pfluger's Arch. ges Physiol. 1921;189:239-42.
7. Sutherland EW (1972). "Studies on the mechanism of hormone action". Science. 177 (4047): 401–8. Bibcode:1972Sci...177..401S. doi:10.1126/science.177.4047.401. PMID 4339614.

**INNOVATIVE
ACADEMY**